



**15-16 APREL  
2022**

**TOSHKENT  
O'ZBEKISTON**



**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G'OYALAR  
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**



**Tadqiqot.UZ**



**CONFERENCES.UZ**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

**O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI**

**“TADQIQOT.UZ”  
XALQARO ILMIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:  
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH  
ISTIQBOLLARI**

**II  
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA  
MATERIALLARI**

**TO‘PLAMI**

**Toshkent - 2022**

# **TOSHKENT VILOYATI QISHLOQ XO‘JLAGINING DINAMIK TAHLILI**

**Namozov Jo‘rabek Abduazizovich**

geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

e-mail: jurabek.n.a@gmail.com

**Saripbayeva Aynura Djoldibayevna**

magistrant

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

aynura.djoldibaevna@mail.ru

**Annotatsiya:** Maqolada Toshkent viloyati qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o‘rni, uning hududiy xususiyatlari bayon qilingan. Viloyat agroiqtisodiyotining 2010-2021 yillardagi o‘zgarish tendensiyalari joriy summada keltirilgan va tarmoqlar tarkibi ko‘rsatkichlari ilmiy tahlil qilingan.

**Tayanch so‘zlar:** Toshkent viloyati, qishloq xo‘jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, ekin yerlar, uzumchilik, bog‘dorchilik.

## **DYNAMIC ANALYSIS OF AGRICULTURE OF TASHKENT REGION**

**Namozov Jurabek**

**Saripbayeva Aynura**


**Annotation:** The article describes the role of agricultural production in Tashkent region in the economy of the country, its regional features. The trends of the regional agro-economy in 2010-2021 are presented in the current amount and the indicators of the structure of the sectors are scientifically analyzed.

**Keywords:** Tashkent region, agriculture, farming, animal husbandry, arable land, viticulture, horticulture.

**Kirish.** Toshkent viloyati maydoni 15,26 ming kv. km bo‘lib, u mamlakatimiz umumiy hududining 3,4 foiziga tengdir. Mintaqa mamlakat qishloq xo‘jalik mahsulotining 13,1 foizini beradi, uning hududiy mahsuloti tarkibida esa bu makroiqtisodiy tarmoq 24,4 foizga teng. Qishloq xo‘jaligining intensiv rivojlanishiga agroiklimiy sharoit, mehnat resurslari, birmuncha suv resurslari bilan yaxshi ta‘minlanganligi, irrigatsiya infratuzilmasining barpo etilganligi hamda yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyasi ta‘sirida katta iste‘mol omilining mavjudligi sabab bo‘lgan.

Viloyatda qishloq xo‘jaligida foydalanadigan yerlar 813,9 ming ga yoki umumiy yer maydonining 53,3 foiziga teng. Albatta, bu raqam, mintaqa qisman tog‘li hududlardan iborat ekanligi sababli, uncha katta emas. Sug‘oriladigan yerlar 339,0 ming ga bo‘lib, ular jami qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarning 41,6 foizini

tashkil qiladi. Bunday maydonlar nisbati Zangiota, Quyichirchiq, Toshkent, Yangiyo‘l tumanlarida katta, Bo‘stonliq, Parkent, Ohangaron tumanlarida esa eng kichik. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida esa Bo‘stonliq va Bekobod tumanlari yetakchilik qiladi. Shuningdek, Zangiota, Parkent va Oqqo‘rg‘on tumanlari ham viloyat agroiqtisodiyotining asosiy hududlaridan hisoblanadi. Nisbatan past ko‘rsatkichlar Quyichirchiq va Ohangaron tumanlarida hamda viloyat shaharlari ko‘rsatkichlarida ko‘zga tashlanadi (1-rasm).



**1-rasm. Toshkent viloyati qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tumanlar ulushi**

**Asosiy qism.** Asosiy qishloq xo‘jalik ekinlaridan paxta 105,4 ming gektarni egallaydi; yalpi hosil 255 ming tonna atrofida, hosildorlik 24,2 s/ga. Paxta ko‘proq Bo‘ka, Oqqo‘rg‘on, Piskent, Chinoz va Bekobod tumanlarida ekiladi. Sholi ko‘rilayotgan yilda 5,7 ming gektarda yetishtirilgan (Bekobod tumani), yalpi hosil 27,0 ming tonna. Boshqa texnika va moyli ekinlardan keyingi yillarda masxar va kungaboqarning ham maydonlari kengayib bormoqda.

Toshkent viloyatida, xususan, tog‘li hududlarda o‘rnashgan Bo‘stonliq va Parkent tumanlarida bog‘dorchilik yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Oldingi yillarda bu qishloq xo‘jaligi tarmog‘i Yangiyo‘l tumanida ham rivojlangan edi. Hozirgi vaqtda turli xil mevalar 18,7 ming gektardan 140 ming tonnadan ko‘proq hosil olingan. Uzumchilik ham bog‘dorchilik bilan birga hududiy tashkil etiladi. Uzum yetishtirishda Parkent tumaniga nafaqat viloyatda, balki respublikada ham raqobat

yo‘q. Tahlil qilinayotgan yilda u 13 ming gektardan ko‘proq maydonni egallagan va 115 ming tonnadan ziyodroq hosil tayyorlangan.

Viloyatda chorvachilikning asosan sut-go‘sh t yo‘nalishi ko‘proq rivojlangan. Jami 630 ming bosh yirik shoxli qoramol, 645 ming bosh qo‘y va echkilar boqiladi. Otlar soni ham nisbatan ko‘proq – 40,2 ming bosh. 2020 yilda tirik vaznda 166 ming tonna go‘sh t, 568 ming tonna sut, 871 mln. dona tuxum, 1,6 ming tonna atrofida jun va 1,5 ming tonna pilla yetishtirilgan. Parrandachilik ko‘proq Qibray, Zangiota tumanlarida rivojlangan.

Viloyatda qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishning hududiy tarkibi ma‘lumotlariga ko‘ra g‘alla yetishtirishda Bo‘ka, Quyichirchiq, Yuqorichirchiq va O‘rtachirchiq tumanlari peshqadam. Sabzavot bo‘yicha Bekobod, kartoshkada Chinoz, Piskent, Qibray ajralib turadi. Bog‘dorchilik Yangiyo‘l, Qibray va Bo‘stonliq tumanlarida rivojlangan; ularning hissasi viloyatda yetishtirilgan mevalarda 42,1 %. Uzumchilik esa Parkent tumanidan tashqari (36,7 %) Bo‘stonliq tumanida ham qisman rivojlangan. Mazkur ikki tuman viloyat uzumining yarmiga yaqinini beradi.

Chorvachilik geografiyasida ham ancha farqlar ko‘zga tashlanadi. Masalan, yirik shoxli qoramollar Bekobod va Bo‘ka, qo‘y va echkilar esa Ohangaron va Bo‘stonliq tumanlarida ko‘proq boqiladi. Bu tog‘ va tog‘oldi hududlarda joylashgan tumanlarga viloyat qo‘y va echkilarining 1/3 qismidan ortig‘i to‘g‘ri keladi. Shahar atrofi joylarida asosan intensiv chorvachilik yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, so‘nggi yillarda parrandachilik va baliqchilik tarmoqlari rivojlanib boryapti.

Mazkur sohalarni joylashtirish qo‘ychilik va qoramolchilikka nisbatan erkinroq amalga oshiriladi.

1-jadval

Toshkent viloyati qishloq xo'jaligining asosiy ko'rsatkichlari va tadriiy o'zgarishlari

|                                                                                  | 2010   | 2011   | 2012   | 2013   | 2014   | 2015    | 2016    | 2017    | 2018    | 2019    | 2020    | 2021    |
|----------------------------------------------------------------------------------|--------|--------|--------|--------|--------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|
| <b>Qishloq</b><br><b>xo'jaligi ekin</b><br><b>maydoni, ming</b><br><b>gektar</b> | 356,6  | 357,6  | 360,1  | 355,6  | 354,6  | 353,3   | 353,5   | 299,6   | 304,5   | 271,3   | 298,2   | 304,8   |
| <b>Qishloq</b><br><b>xo'jaligi</b><br><b>mahsuloti, mlrd.</b><br><b>so'm</b>     | 3617,8 | 5148,2 | 6484,4 | 7475,2 | 9069,2 | 10735,5 | 12034,2 | 15594,8 | 18359,1 | 20417,1 | 25410,5 | 30712,7 |
| <b>Qishloq</b><br><b>xo'jaligi</b><br><b>hosildorligi,</b><br><b>mln. so'm</b>   | 10,1   | 14,4   | 18,0   | 21,0   | 25,6   | 30,4    | 34,0    | 52,0    | 60,3    | 75,3    | 85,2    | 100,8   |
| <b>Dehqonchilik</b><br><b>mln. so'm</b>                                          | 2,16   | 2,93   | 3,53   | 4,05   | 4,69   | 5,76    | 5,99    | 8,11    | 8,87    | 10,00   | 10,83   | 13,32   |
| <b>ulushi (foizda)</b>                                                           | 59,8   | 57,0   | 54,5   | 54,1   | 51,7   | 53,6    | 49,8    | 52,0    | 48,3    | 49,0    | 42,6    | 43,4    |
| <b>Chorvachilik</b><br><b>mln. so'm</b>                                          | 1,46   | 2,22   | 2,95   | 3,43   | 4,38   | 4,98    | 6,04    | 7,48    | 9,49    | 10,42   | 13,04   | 15,48   |
| <b>ulushi (foizda)</b>                                                           | 40,2   | 43,0   | 45,5   | 45,9   | 48,3   | 46,4    | 50,2    | 48,0    | 51,7    | 51,0    | 51,3    | 50,4    |

Manba: Toshkent viloyati statistika boshqarmasi materiallari asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi.



Mintaqa qishloq xo'jaligi ekin yerlari va uning hosildorligida doimiy o'zgarishlar bo'lib kelgan. Jumladan ekin yerlari maydoni 2010 yilga (356,6 ming ga) nisbatan 15 foizga kamaygan bo'lib, buning asosiy sababi qishloq xo'jaligi yerlarining boshqa sohalarga berib yuborilayotganligini ko'rsatish mumkin. 2019 yilda mazkur yerlar maydoni hattoki 270 ming gektargacha tushgan, biroq qishloq xo'jaligi konsepsiyasining qabul qilinishi uning miqdorini oshishiga olib keldi (1-jadval).

Viloyat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi joriy narxlarda hisoblaganda 2010 yilga nisbatan deyarli 9 baravarga o'sgan. Biroq haqiqiy rivojlanish, inflyatsiyani hisobga olganda taxminan 3-4 martaga teng bo'lgan. 1 gektar ekin yerlari hisobidagi hosildorlik esa tahlil qilinayotgan yillarda 10 barobargacha o'zgarib borgan. Bu ko'rsatkich ham inflyatsiya ta'sirida 4-5 ni tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligi tarmoqlar tarkibida katta o'zgarish yuz bermoqda, chorvachilikning ulushi dehqonchilikka nisbatan o'sib bermoqda. Buning asosiy sababi sifatida chorvachilikning (asosan kichik sohalarni) xususiylashib borayotganligini ko'rsatish mumkin.

**Xulosa.** Toshkent viloyati qishloq xo'jaligi yerlari va uning hosildorligida muntazam o'zgarishlar bo'lib kelmoqda. Iqtisodiyotning boshqa sohalarni rivojlantirish uchun qishloq xo'jaligi yerlari qurbonlikka berilmoqda. Qolaversa asosiy tabiiy boyliklar yer va suv resurslari sifat tarkibida ham o'zgarishlar (tuproq unumdorligining pasayishi, suv yetishmovchiligi) kuzatilmoqda. Bu holat viloyat xo'jaligini hududiy tashkil qilish masalalarini takomillashtirishni taqozo etadi. Bunda shahar atrofi joylarida intensiv, relyef noqulay bo'lgan joylarda (tog' va tog' oldi hududlarida) ekstensiv xo'jalikni rivojlantirgan ma'qul. Tuproq unumdorligi past bo'lgan hududlarda qishloq xo'jaligidan boshqa sohalarni joylashtirsa bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Namozov, J. R. A. (2021). IQTISODIY VA IJTIMOY GEOGRAFIYA: SHAKLLANISHI, RIVOJLANISHI VA MUAMMOLARIGA OID BA'ZI MULOHAZALAR. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 427-436.
2. Namozov, J. A., & Kanglibayeva, Z. Y. (2021). YUQORI CHIRCHIQ TUMANI QISHLOQ XO'JALIGI TUZILISHI VA DINAMIKASI. *Scientific progress*, 2(8), 468-472.
3. Soliyev A.S. O'zbekiston geografiyasi (O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi). - T.: Universitet, 2014.
4. Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari (www.toshvilstat.uz). – T., 2020 y.
5. Turakulovich, R. F., & Umirkulovich, S. A. (2020). FARMS OF UZBEKISTAN: DEVELOPMENT, SPECIALIZATION. *GEOGRAPHY. Journal of Critical Reviews*, 7(6), 1189-1196.
6. O'zbekiston Respublikasining yer fondi. – T.: O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi, 2020.

|     |                                                                                                                                                                                                |     |
|-----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 30. | <b>Qosimov Xasanboy Sirojiddinovich</b><br>SHAHARLAR TARAQQIYOTIDA TURISTIK KORIDORLARNING<br>AHAMIYATI.....                                                                                   | 392 |
| 31. | <b>Madaminov Muxiddin Malikjon o'g'li</b><br>HUDUDIIY SANOAT ISHLAB CHIQARISHNING O'SISH SUR'ATLARI<br>(FARG'ONA VILOYATI MISOLIDA).....                                                       | 396 |
| 32. | <b>Мусаев Бекзод Муродович</b><br>МИРЗАЧЎЛ МИНТАҚАСИ ШАҲАРЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШ ВА<br>РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ.....                                                                                  | 401 |
| 33. | <b>Умирзакова Нилуфар</b><br>АНДИЖОН ВИЛОЯТИНИНГ ГЕОУРБАНИСТИК ВАЗИЯТИ.....                                                                                                                    | 406 |
| 34. | <b>Pazilova Umida Karimjonovna</b><br>SHAHARLARNI IJTIMOIIY GEOGRAFIK O'RGANISHNING<br>BA'ZI BIR MASALALARI.....                                                                               | 410 |
| 35. | <b>Ражабов Шохрух Шухрат угли</b><br>САМАРКАНД К БЛИЖАЙШЕМУ БУДУЩЕМУ.....                                                                                                                      | 414 |
| 36. | <b>Бюраев Нурканат Аширбек угли, Нисанбаева Кундиз Алихановна</b><br>ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ И ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ<br>НА СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ РЕГИОНОВ<br>УЗБЕКИСТАНА..... | 419 |
| 37. | <b>Муродов ОриФ Жумаевич, Адилова Азиза Шухратовна</b><br>ПАХТА ТОЗАЛАШ КОРХОНАЛАРИНИ ЧАНГСИЗЛАНТИРИШ,<br>ЦИКЛОНЛАРНИНГ ЯНГИ КОНСТРУКЦИЯЛАРИНИ<br>ЯРАТИШ.....                                  | 424 |
| 38. | <b>Абдуназаров Хусан Менглиевич, Ниёзов Хўжакул Мирзабобоевич</b><br>ЖАНУБИЙ ЎЗБЕКИСТОН МИНЕРАЛ-ХОМАШЁ РЕСУРСЛАРИ САЛОҲИЯТИ<br>ВА УЛАРНИНГ ХЎЖАЛИК АҲАМИЯТИ.....                               | 428 |
| 39. | <b>Yoqubov Olimjon Yoqub o'g'li</b><br>SHAHARLARNING YASHASH UCHUN QULAYLIK INDEKSI.....                                                                                                       | 433 |
| 40. | <b>Namozov Jo'rabek Abduazizovich, Saripbayeva Aynura Djoldivayevna</b><br>TOSHKENT VILOYATI QISHLOQ XO'JLAGINING DINAMIK<br>TAHLILI.....                                                      | 437 |
| 41. | <b>Turkmanova Dilnoza Jabborovna</b><br>SHAHARISABZ TUMANI AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI.....                                                                                                   | 442 |
| 42. | <b>Уразимбетова Дилшода</b><br>ПЕРСПЕКТИВНЫЕ СДВИГИ В ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ СТРУКТУРЕ МИРОВОЙ<br>ГАЗОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....                                                                         | 446 |
| 43. | <b>Utarbayeva Kamila Abutalipovna, Turdimambetov Izimbet Raxmetovich</b><br>QIRM-KONGO GEMORROGIK ISITMA KASALLIGINING GEOGRAFIK<br>TARQALISHINI O'RGANISHDA TARIXIY MANBALAR.....             | 451 |
| 44. | <b>Тўхтаева Хабиба Тошевна, Мавлонова Дилафруз Жабборовна</b><br>БУХОРО ВИЛОЯТИ ЖИНОЯТЧИЛИК ГЕОГРАФИЯСИНИНГ<br>ГЕОДЕМОГРАФИК ХУСУСИЯТЛАРИ.....                                                 | 456 |